



JIZZAX VILOYATIDA EGAR-JABDUQ YASALISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

SPECIAL ASPECTS OF SADDLE-HARMING IN JIZAKH REGION

ОСОБЕННОСТИ ПОВРЕЖДЕНИЯ КОННОГО СЕДЛА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Muhammad Tilavboyev

JDPU, Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masafaviy

ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Tel.: +998 99 540 85 75

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyatida qadimdan rivojlangan hunarmandchilik sohalaridan egar-jabduq yasash san'atining tarixiy shaklanish jarayonlari va zamonaviy sharoitda saqlanib qolishi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda egar-jabduq ishlab chiqarishning an'anaviy usullari, materiallari, bezaklari va bu sohaning viloyat madaniy merosidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, egar-jabduq yasash jarayonida qo'llaniladigan tabiiy materiallar (teri, yog'och, oqtol), ularni qayta ishlash texnologiyalari, naqshlar va bezaklarning madaniy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor sifatida, Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi ustalar Tursunboy Asqarov, Mirzabek Bozorboyev tajribasiga qaratilgan bo'lib, ularning ish usullari, ustoz-shogird an'analari va mahalliy xususiyatlari dala so'rovnoma shaklida tadqiq etilgan. Xususan, maqolada egar-jabduq yasash san'atining hozirgi kundagi holati, uning turizm va iqtisodiyotdagi roli kabi masalalariga to'xtalangan. Tadqiqot natijalari asosida an'anaviy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, Bahmal tumani, egar-jabduq, an'anaviy hunarmandchilik, madaniy meros, ustoz-shogird an'analari, teri ishlash, naqshlar, turizm.

Abstract: This article analyzes the historical formation processes of the art of saddlery and harness making, one of the oldest crafts in the Jizzakh region, and its preservation in modern conditions. The study covers traditional methods, materials, decorations of saddlery production, and the role of this industry in the



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

cultural heritage of the region. It also examines the natural materials used in the process of saddlery and harness making (leather, wood, oak), their processing technologies, and the cultural significance of patterns and decorations. The main focus is on the experience of masters Tursunboy Askarov and Mirzabek Bozorbayev from the Bakhmal district of the Jizzakh region, and their working methods, master-student traditions, and local characteristics are studied in the form of a field survey. In particular, the article addresses issues such as the current state of the art of saddlery and harness making, its role in tourism and the economy. Based on the research results, opportunities for supporting traditional crafts and adapting them to modern requirements were highlighted.

Keywords: Jizzakh region, Bahmal district, saddlery, traditional crafts, cultural heritage, master-student traditions, leatherworking, patterns, tourism.

Аннотация: В статье анализируются исторические процессы становления искусства седельно-шорного дела, одного из древнейших ремесел Джизакской области, и его сохранение в современных условиях. В исследовании рассматриваются традиционные методы, материалы и украшения производства седельных изделий и упряжи, а также роль этой отрасли в культурном наследии региона. Также рассмотрено культурное значение натуральных материалов (кожи, дерева, дуба), используемых в процессе изготовления седельно-шорных изделий, технологии их обработки, узоры и украшения. Основное внимание уделено опыту мастеров Турсунбая Аскарлова и Мирзабека Бозорбаева из Бахмальского района Джизакской области, а также изучению их методов работы, традиций взаимодействия мастеров и учеников, местных особенностей в форме полевого анкетирования. В частности, в статье рассматриваются такие вопросы, как современное состояние шорного дела и его роль в туризме и экономике. По результатам исследования были выделены возможности поддержки традиционных ремесел и адаптации их к современным требованиям.

Ключевые слова: Джизакская область, Бахмальский район, шорное дело, традиционные ремесла, культурное наследие, традиции мастеров-учеников, кожевенное дело, узоры, туризм.

KIRISH

Jizzax viloyati o'zining qadimiy hunarmandchilik an'analari bilan mashhur. Bu yerda asrlar davomida turli xil hunarmandchilik sohalari rivoj topgan, ulardan biri egar-jabduq yasash san'ati hisoblanadi. Egari-jabduq yasash nafaqat amaliy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ahamiyatga ega, balki madaniy merosning muhim qismi sifatida ham qadrlanadi. Jizzax viloyatida egar-jabduq yasash san'ati qadimgi chorvadorlik madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Jizzax viloyati hududi qadimdan chorvadorlik bilan shug'ullanuvchi aholi yashaganligi sababli, otlar bu yerda nafaqat transport vositasi, balki hayot tarzining ajralmas qismi bo'lgan. Shuning uchun egar-jabduq yasash san'ati viloyatda chuqur ildiz otgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-405-son qarorida zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros ro'yxatida egar-jabduq yasash bilan bog'liq an'analar belgilab quyilganligi ham bu sohani ahamiyatini belgilaydi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qarori.).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid bir qancha ilmiy va dala tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Elmuratova Sh., Bobojonov D., Mahmudov O.lar kabi tadqiqotchilarning ilmiy maqolalarida hunarmandchilikning egar-jabduq yasash sohasi va egar-jabduq sohasi bilan shug'ullangan Maxtumquli kabi mashxurlar hayoti hamda an'anaviy, nodir egar-jabduq buyumlarini Rossiya imperiyasi tomonidan Peterburgdagi muzeyga jo'natilganligi haqida ma'lumot berilgan.

Jizzax viloyati Baxmal tumani Novqa qishlog'idagi egar-jabduq yasovchi ustalar 70 yoshli Tursunboy Asqarov ota hamda Mirzabek Bozorboyevlar hunarmandchilikning bu sohasi haqida bitta egar bir haftada tayyor bo'lishi, oqtoldan yasalishi, ustaxonaga tahoratsiz kirish mumkin emasligi, ish jarayonida ustaxonaga tupurulmasligini aytib o'tishdi. Shuningdek, ustoz-shogird an'anasida ustozdan qo'l olishda uni rozichiligini olish, teshani qonlash, tesha haqi an'anasi borligi haqida ma'lumot beradi. Lekin Jizzax vohasining egar-jabduq yasash sohasi haqidagi ma'lumot ilmiy jihatdan tahlil qilish va jamlash ishlari amalga oshirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid tadqiqotni amalga oshirishda asosan dala tadqiqot va ilmiy manbalar tahlili yo'nalishida ilmiy izlanish olib borildi. Jizzax viloyatining Bahmal tumanida dala so'rov noma ishlari o'tkazildi. To'plangan ma'lumotlar qiyosiy-uslubiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida asosan dala so'rov ma'lumotlariga tayanilganligi uchun umumfan uslublari: induksiya, deduksiya; maxsus fan uslublari – tizimli tahlil, analiz va sintez, tarixiy taqqoslash, tizimiylik usullardan foydalanildi.





TAHLIL VA NATIJALAR

Qadimgi hunarmandlar otlarni qulay va chiroyli minish uchun egarlar yasashni mukammal darajada o'zlashtirganlar. Chorvadorlik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun ot egar-jabduqlari nihoyatda muhim bo'lgan. Hunarmandlar teri, charm va boshqa tabiiy materiallardan foydalanib, nafaqat mustahkam, balki badiiy jihatdan ham jozibali mahsulotlar yaratganlar. Egari – 1) ot-ulov (ot, eshak, xachir, bug'u va boshqalar) ustiga qo'yiladigan va minib o'tirish hamda yuk tashish uchun moslashtirilgan qulay moslama hisoblanadi. Odamlar hayvonlarni qo'lga o'rgatib, minib yuradigan davr (miloddan avvalgi 1-ming yillikning 2-yarmi) dan bu soha ma'lum. Egarning kundalik minib yurish, sport, harbiy (safda yurish), mashq yoki poyga uchun mo'ljallangan turlari mavjud. Bundan tashqari, har bir xalq o'z yashash shart-sharoitidan kelib chiqib o'ziga xos egar turlarini yaratgan. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, rus va boshqalar xalqlar ishlatadigan egarlar asosan, tuzilishi va bezagi bilan bir-biridan bir oz farq qiladi, lekin umumiy tuzilishi bir-biriga o'xshaydi.

Egar-jabduq yasash jarayoni bir qator murakkab bosqichlardan iborat. Dastlab, teri va charm tanlab olinadi, so'ngra ularni maxsus usullarda ishlov berish orqali mustahkamlanadi. Keyinchalik, hunarmandlar egarning asosiy qismini yaratib, uni naqshlar va bezaklar bilan ziynatlaydilar. Bu jarayon nafaqat mahorat, balki sabr va ijodkorlikni ham talab qiladi. Dastlabki egarlar oddiy yog'och va charmdan yasalgan bo'lib, ularning dizayni va bezaklari sodda edi. Yuk tashishga mo'ljallangan egarlarda yukni mahkam bog'lash moslamalari ham bo'ladi. Egari pishiq yog'och (tol, o'rik, behi, yong'oq, chinor, archa va boshqalar) dan yasaladi, sadaf, suyak, temir va tasmalar bilan bezatiladi. Otulovni minganda egar ustiga yumshoq to'shama (mas, gilamcha) tashlab olinadi. Egarning o'rindig'i taglik va charm qoplangan yostiqdandir. Egarning ikki tomoniga osiltirib yopiladigan qismi "tebengi" deb ataladi va uzangi bandining oyoqni sidirishidan saqlab turadi. Egari qo'shimcha moslamalari (ayl, uzangi, uzangibog' va boshqalar) bilan birga Egari-jabduq deb ataladi. Keyinchalik, hunarmandlar naqshlar, ranglar va zargarlik buyumlaridan foydalanishni boshladilar. Jumladan, Xiva xoni tomonidan rus podshosiga yuborilgan mollar ichida oltin bilan ishlov berilgan egari bo'lganligi keltirib o'tish mumkin (Mahmudov N. va boshqalar. 2021: 692-710).

O'zbekistonda ham egarchilik qadimdan rivojlangan. Shuning uchun egarning tuzilishiga xos atamalar paydo bo'lgan: suyanchiq, o'rindiq, do'g'a, qopqoq, qanot, terlik, ayl, uzangi va uzangibog' va boshqalar. Egari-jabduq bilan shug'ullanish kasbi egarchilik deb ataladi. Egarchilik hunarmandchilikning qadimiy turlaridan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

biri. U asosan yirik shaharlarda rivojlangan. Milodiy V asrdan boshlab egar hunar darajasiga ko'tarilgan va asta-sekin takomillashtirib borilgan. Egarchilik kasbi ham qadimiy hunarmandchilik mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi. Bu kasb bilan turli mashhur shoir va adiblar ham shug'ullanishgan. Xususan, Maxtumquli yoshligidan qobiliyatli, mehnatkash bo'lib ulg'ayadi. Mol boqib, ota-onasi bilan dalalarda ishlagan, egar jabduq tikish, ko'nchilik bilan shug'ullangan, keyinchalik mohir zargar bo'lib yetishgan (Bobojonov D. 2024: 16). Shuningdek, XVI asr muarrixii Xasanxo'ja Nisoriyning ma'lumot berishicha, "Buxorolik hunarmand usta Mavlono Moiliy Sirroj ustalikda shaharga shuxrati yoyilgan va zamonaning yagonasi bo'lgan kishi ekan. Yoshu qari sirrojlarning sirroji—chirog'i edi. Savdogarlar Mavlono Moiliy yasagan bezak-ziynatli egar-jabduqlarni Bulg'oru Chingacha eltib, ajoyib na'muna sifatida havola etishgan" (Mahmudov N. va boshqalar. 2021: 692–710).

Egar-jabduq oddiy kustar usulda maxsus do'konlarda yasalgan. Ustalar, asosan, tesha, bolta, randa, arra, iskana va boshqa shu kabi asbob-qurollardan foydalanishgan. Egarchilik bilan O'zbekistonning barcha viloyatlarida shug'ullanishgan, lekin Buxoro, Samarqand viloyatlari, Fargona vodiysi va Jizzax vohasida ko'proq mashg'ul bo'lishgan. Ayrim ustalar egarchilikni san'at darajasiga ko'targan. Egari ustiga charm qoplash, bezaklariga suyaklar qadash rasm bo'lgan. Egari ustiga tashlab olinadigan xalta-xurjun charmdan tikilib, mis sim va xalqalar bilan bezatiladi. Ushbu qimmatbaho shakldagi egari-jabduq buyumlari Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlari yakunida diqqatini tortgan. Masalan, Rossiya tomonidan 1869-yilda rejali o'lja yig'ish choralari natijasida Turkistondagi ko'plab qimmatli buyumlar qatorida nodir egari-jabduqlar ham boshqa buyumlar qatori Peterburgdagi muzey hamda kutubxonalarga jo'natilganligini qayd etish lozim (Elmuratova Sh. 2022: 129-130).

O'zbekistonda ot-ulovning ahamiyati hozir ham kattaligi tufayli egarchilik hunarmandchilikning bir sohasi hisoblanadi. Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, u o'zining qadimiy hunarmandchilik an'analari, xususan, egari-jabduq yasash san'ati bilan mashhur bo'lgan. Jizzax viloyati Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashganligi sababli, bu yerda turli madaniyatlar almashindi. Bu egari-jabduq yasash san'atiga ham ta'sir ko'rsatdi. Masalan, fors, turk va xitoy naqshlari mahalliy hunarmandlar tomonidan qo'llanila boshlandi. Bozorlardagi do'konlarda temirchilar, sarrojlar, egarchilar, tikuvchilar, kumush bilan ishlovchi hunarmandlar va misgarlar ishlab, shu yerning o'zida o'z mahsulotlarini sotganliklari ko'rsatib o'tilgan (Mahmudov N. va boshqalar. 2021: 692–710).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Egar-jabduq yasash murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

– Egar-jabduq yasashda eng muhim material bu charm va teri hisoblanadi. Jizzax viloyatida qo'y, echki va sigir terilari keng qo'llaniladi. Teri maxsus usullarda qayta ishlanib, mustahkamlanadi.

– Egar asosini yasash uchun yog'och ishlatiladi. Yog'och tanlashda uning mustahkamligi va egiluvchanligi hisobga olinadi.

– Egar-jabduqlarni bezash uchun metall buyumlar, ipak ip, rangli charm va boshqa dekorativ materiallardan foydalaniladi.

– Yog'ochdan egarning asosiy qismi yasaladi. Bu qism otning orqasiga moslab ishlanadi va mustahkam bo'lishi kerak.

– Yog'och qismga charm qoplama yopishtiriladi. Bu jarayonda charmni yumshoq va qulay qilish uchun maxsus moylar ishlatiladi (Islomov Z., 2019: Iss. 1, Article 1.).

Jizzax viloyatida egar-jabduqlarni bezashda an'anaviy naqshlar qo'llaniladi. Masalan, geometrik shakllar, o'simlik naqshlari va hayvonlar tasvirlari keng tarqalgan. Bezaklar qo'lda yoki maxsus asboblarda yordamida ishlanadi. Ba'zan egarlarga kumush yoki oltin bilan qoplangan metall buyumlar ham qo'shiladi. Tayyor egar-jabduqni mustahkamlik va chiroyli ko'rinishini ta'minlash uchun yakuniy ishlov beriladi. Bu jarayonda charmni yumshatish, rang berish va bezaklarni mahkamlab qo'yish kiradi.

Baxmal tumani Novqa qishlog'i Tursunboy Asqarov 70 yosh, Mirzabek Bozorboyev egar-jabduq yasovchi ustalar ma'lumot berishicha, bitta egar bir haftada tayyor bo'ladi, oqtoldan yasaladi. Ustaxonaga tahoratsiz kirish mumkin emas, ish jarayonida ustaxonaga tupurulmaydi. Ustoz-shogird an'anasida ustozdan qo'l olishda uni rozichiligini olish, teshani qonlash, tesha haqi an'ansi bor. Tesha o'tkirligi va ustaga shikast yetkazmasligi uchun hamda "jonqiriq" ya'ni to'nkani qo'y yoki xo'roz so'yib vaqti vaqti bilan ehson chiqarib turilgan. Tesha Hazrati Xizrdan qolgan va Xizr xazratlari hunarmandlar piri hisoblangan. Egarni tayyorlab qismlarini bir biriga yelimlashda hayvon terisini qaynatib ayniqsa azaldan eshak terisini qaytib, glitserin qo'shib, kley tayyorlangan. Chiy (qamish)dan yasab to'qilgan jihoz ustiga kley to'kilib quritilgan va mayda bo'laklarga pichoq bilan bo'linib yil davomida ishlatishgan. Egarni yasashda ot, (agarda ot egarini otning payidan qilinganlagini sezsa, ko'pkari chopmagan) mol, qo'y poyidan ishlatilgan. Mashxur otlar egariga, albatta, qo'y payidan foydalangan. Pay mayda qilinib silliq lanib, bolg'a bilan to'nka ustida pachaqlangan va yumshoq bo'lgandan so'ng ayollar tomonidan tolaga ajratilgan. Paydan tayyor bo'lgan tolani kigizni kleyga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

botirib, molning qovurg'asidan yasalgan (maxsus andava shaklda) tekislangan va oqqayin po'stlog'i bilan yelimlangan. Oqqayindan yasalgan egar o'zining mustahkamligi bilan ajarlib turgan. Dastlab oqqayin Buxorodga Rossiyadan keltirilgan. Kleylangan egar 3,4 kun quritilgan. Bir kun ustki qismi poylangan, ikkinchi kuni esa boshqa taraflari poylangan. Poylangan egar quriti lib najdak qog'oz bilan qirralari tekislangan va egarning ustki qismi qizil kraska va lak urilib ranglantirilgan (Dala tadqiqoti: Baxmal tumani Novqa qishlog'i Tursunboy Asqarov va Mirzabek Bozorboyev).

Tarixchi Qaxramon Almanov ma'lumot berishicha, Sangzor daryosining o'rta oqimi va uning o'ng va so'l tomonida joylashgan Chubar qishlog'i aholisi o'rtasida hunarmandchilik va zarduzlik sohasi yahshi rivojlanmagan. Yog'ochsozlik xususan, egar-jabduq yasash sohasida faqatgina 2 ta oila vakillari shug'ullangan xolos. Egari-jabduq yasash asosan qo'shni qishloq bo'lgan Novqada yahshi rivojlangan, aholi asosan, buyurtma qildirib, hunarmandlarga yasatgan (Almanov Q., 2024: 1-4).

Egari-jabduq yasash san'ati Jizzax viloyatining madaniy merosining muhim qismidir. Egari-jabduq yasash usullari va naqshlari avloddan avlodga o'tib kelgan. Bu an'analarni saqlash viloyat aholisi uchun muhim vazifa hisoblanadi. Egari-jabduqlar nafaqat foydali, balki badiiy jihatdan ham qimmatlidir. Ularning naqshlari va bezaklari mahalliy madaniyatning yorqin namunalaridir. Jizzax viloyatiga kelgan sayyohlar an'anaviy egari-jabduqlarni sotib olish yoki ularni yasash jarayonini kuzatish orqali viloyat madaniyatini yaqindan tanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Zamonaviy dunyoda egari-jabduq yasash san'ati yangi imkoniyatlar bilan to'ldirilmoqda. Jizzax viloyatida hunarmandlar qadimiy usullarni zamonaviy dizaynlar bilan uyg'unlashtirib, yangi mahsulotlar yaratmoqda. Masalan, yoshlar orasida an'anaviy naqshlar bilan birga zamonaviy dizaynlarni qo'llash tendentsiyasi kuchaymoqda. Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan egari-jabduqlar xorijiy bozorlarga chiqarilmoqda. Bu viloyat iqtisodiyotiga hissa qo'shadi. Hunarmandchilik maktablari va ustaxonalarda yoshlarga egari-jabduq yasash san'atini o'rgatish orqali bu an'ana saqlanib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jizzax viloyatida egari-jabduq yasash san'ati qadimiy an'analar va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligining yorqin namunasidir. Bu san'at nafaqat amaliy ahamiyatga ega, balki viloyatning madaniy boyligi hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu an'anaviy kasbni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish orqali uni keyingi avlodlarga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi. Bu hunar asrlar davomida





viloyatda rivojlanib kelgan va hozirgi kunda ham uning ahamiyati katta.

Egar-jabduq yasash nafaqat amaliy ehtiyojlarni qondirish, balki madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Jizzax viloyatida egar-jabduq yasash san'ati nafaqat amaliy ahamiyatga ega, balki viloyatning madaniy, tarixiy va badiiy boyligini ifodalaydi. Bu san'atni saqlash va rivojlantirish orqali nafaqat an'analar saqlanib qoladi, balki viloyatning turizm va iqtisodiy salohiyati ham oshadi.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bo'lsa-da, Jizzax viloyatida egar-jabduq yasash an'analari saqlanib qolmoqda. Hunarmandlar qadimiy usullarni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirib, yangi dizaynlar va modellarni yaratmoqda. Bu nafaqat mahalliy aholi, balki xorijiy sayyohlar uchun ham qiziqarli bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarmoqda. Egar-jabduq yasash san'ati Jizzax viloyatining madaniy merosining ajralmas qismidir. Bu san'at oqali avlodlar o'rtasida an'analar saqlanib qolmoqda va viloyatning turizm salohiyatini oshirishga hissa qo'shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islomov Z., "The role of the International islamic academy of Uzbekistan in the development of islamic studies" The Light of Islam: Vol.2019: Iss. 1, Article 1.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-405-son qarori.

<https://www.lex.uz/uz/docs/-6713096>

3. Mahmudov N. va boshqalar. So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyoda hunarmandchilik markazlarini takomillashtirish asoslari/Academic research in educational sciences. Volume 2. 2021. –B. 692-710.

4. Bobojonov D., Maxtumquli Firog'iy o'qigan madrasa/Innovatsiya va tadqiqot ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. 9-son. – Urganch. 2024. 16-bet.

5. Elmuratova Sh. O'zbekistonda muzeylarning vujudga kelish jarayonlari, ularning faoliyatida Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyatining ta'siri. /Markaziy Osiyo tarixining dolzarb muammolari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: 2022. -B. 129-130.

6. Almanov Q. Jizzaxning Chubar eli va uning qisqacha tarixi/O'zbekiston milliy universiteti xabarlari. Vol. 1. № 1. Toshkent:. 2024. –B. 1-4.

7. Dala tadqiqoti: Baxmal tumani Novqa qishlog'i Tursunboy Asqarov va Mirzabek Bozorboyev.

